



Loyiha rahbari:
f.f.d., dots. Qurbonova Munavvara
Abdujabborovna
E-mail: munavvara2013@yandex.ru
Tel: (+99897)7227125

Loyihaning maqsadi: ko'zi ojiz shaxslar uchun o'zbek tiliga asoslangan sintezator ishlab chiqish orqali milliy tilimizning axborot uslubini yaratish, "Kompyuter tilshunosligi" fanining rivojlanishiga hissa qoshish hisoblanadi.

Loyihaning qisqacha tavsifi (vazifasi):

loyiha mavzusi bo'yicha jahon kompyuter tilshunosligida mavjud tajribalarni o'rganish, ilg'or tajriba usullarini o'zbek tiliga tatbiq etish orqali shu tilning qonuniyatlariga asoslangan sintezator uchun yuqin lingvistik ta'minot va audioma'lumotlar bazasini yaratish; loyiha doirasida tayyorlangan ma'lumotlar bazasi asosida o'zbek nutq sintezatorining dastlabki talqinini ishlab chiqishdan iborat.

Kutilayotgan natija:

Muayyan texnik talablar va nutq parametrlari bo'yicha shakllantirilgan audioma'lumotlar bazasi asosida O'zbekistonda birinchi marta tabiiy ovozga maksimal darajada yaqinlashtirilgan sun'iy ovoz hamda nutqni sintezlashga xizmat qiluvchi dasturiy ta'minot yaratildi.

O'zlashgan so'zlardagi urg'uning o'rnini to'g'ri ko'rsatish maqsadida 11000 ta so'zni o'z ichiga olgan "O'zbek tili o'zlashma so'zlarining urg'uli lug'ati" yaratildi. Ushbu dastur "TTSuzbot" telegram boti orqali Onlayn rejimda ham ishga tushirilib, keng jamoatchilik o'rtasida ommalashtirildi.

Qo'llanish doirasi: Loyiha natijalari tiflokompyuter sohasini rivojlantirish, o'zbek kompyuter lingvistikasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda ilgari surilgan nazariyalarni yangicha yondashuvlar bilan boyitish, elektron lug'atlar, ularning mobil ilovalarini ishlab chiqish, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "mashina tarjimasining lingvistik asoslari", "Lingvistik tadqiqotlarda kompyuter vositalari va dasturlash", "Python dasturlash tili", "Korpus lingvistikasi", "Kompyuter leksikografiyasi", "Kompyuter lingvistikasida sun'iy intellekt metodlari" kabi fanlarga oid monografiya, o'quv qo'llanma, uslubiy ko'rsatma va darsliklar yaratish, mazkur fanlar bo'yicha ma'ruza, seminar hamda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, intellektual korpus platformalarini shakllantirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Amalga oshirish:

2018-2020-yillarga mo'ljallangan BV-Atex-2018-(143)" Ko'zi ojiz shaxslar uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o'qish va yozish imkonini beruvchi o'zbek tiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta'minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish" amaliy grant doirasida (292.200 000 so'm)